



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 6 Issue 03 | pp. 79-94 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA ICHKI AUDIT SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI KOMPLEKS BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH



Ergashev Olloyor Furqat o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali

tayanch doktoranti

<https://orcid.org/0009-0003-2654-1534>

ergashevolloyor53@gmail.com

Annotatsiya: Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida ichki audit instituti aksiyadorlik jamiyatlarida moliyaviy intizomni ta'minlash, risklarni boshqarish hamda ichki nazorat tizimining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni baholashning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, taqqoslama tahlil, statistik usullar, ekspert baholash hamda ilmiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijasida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar institutsional, tashkiliy, inson kapitali, texnologik hamda normativ-huquqiy omillar sifatida guruhlashtirildi. Shuningdek, ushbu omillar asosida ichki audit sifatini baholashning kompleks modeli taklif etildi. Taklif etilgan yondashuv aksiyadorlik jamiyatlarida audit jarayonlarining shaffofligini oshirish hamda korporativ boshqaruv samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ichki audit, audit sifati, aksiyadorlik jamiyati, korporativ boshqaruv, audit samaradorligi, audit omillari.

Аннотация: В современной системе корпоративного управления институт внутреннего аудита играет важную роль в обеспечении финансовой дисциплины, управлении рисками и повышении эффективности системы внутреннего контроля в акционерных обществах. Основной целью исследования является выявление факторов, влияющих на качество внутреннего аудита в акционерных обществах, а также совершенствование научно-методических основ их оценки. В процессе исследования использованы методы системного анализа, сравнительного анализа, статистические методы, экспертная оценка и научное обобщение. В результате исследования основные факторы, влияющие на качество внутреннего аудита, были сгруппированы по следующим направлениям: институциональные, организационные, факторы человеческого капитала, технологические и нормативно-правовые. Кроме того, на основе данных факторов предложена комплексная модель оценки качества внутреннего аудита. Предложенный подход способствует повышению прозрачности аудиторских процессов в акционерных обществах и усилению эффективности корпоративного управления.

Ключевые слова: внутренний аудит, качество аудита, акционерное общество, корпоративное управление, эффективность аудита, факторы аудита.

Abstract: *In the modern corporate governance system, the institution of internal audit plays an important role in ensuring financial discipline, managing risks, and improving the effectiveness of internal control systems in joint-stock companies. The main objective of this research is to identify the factors affecting the quality of internal audit in joint-stock companies and to improve the scientific and methodological foundations for their evaluation. In the research process, methods such as system analysis, comparative analysis, statistical methods, expert assessment, and scientific generalization were used. As a result of the study, the main factors influencing internal audit quality were classified into institutional, organizational, human capital, technological, and regulatory-legal factors. In addition, a comprehensive model for assessing internal audit quality was proposed based on these factors. The proposed approach contributes to increasing the transparency of audit processes in joint-stock companies and strengthening the effectiveness of corporate governance.*

Keywords: *internal audit, audit quality, joint-stock company, corporate governance, audit efficiency, audit factors.*

Kirish

Jahon iqtisodiyotida korporativ boshqaruv tizimining rivojlanishi aksiyadorlik jamiyatlarida nazorat va boshqaruv mexanizmlarining takomillashuvini taqozo etmoqda. Global iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi, kapital bozorlarining kengayishi hamda investorlar manfaatlarini himoya qilish zarurati korporativ boshqaruv tizimida samarali nazorat mexanizmlarini shakllantirishni talab qiladi. Ayniqsa, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, investitsiya jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hamda korporativ risklarni samarali boshqarish jarayonlarida ichki audit instituti muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichki audit korxona faoliyatida ichki nazorat tizimini baholash, mavjud risklarni aniqlash va ularni boshqarish hamda boshqaruv qarorlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan mustaqil va obyektiv faoliyat sifatida qaraladi. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda ichki audit faqatgina nazorat funksiyasini bajaruvchi vosita sifatida emas, balki tashkilotning strategik boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim boshqaruv instrumenti sifatida ham namoyon bo'lmoqda. Shu jihatdan ichki audit instituti korporativ boshqaruv tizimining ajralmas elementi sifatida e'tirof etiladi.

Xususan, aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifati moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish hamda investorlar ishonchini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Ichki audit tizimi qanchalik samarali tashkil etilgan bo'lsa, korxona faoliyatining shaffofligi va boshqaruv qarorlarining asoslanganligi shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli ichki audit sifati nafaqat ichki nazorat tizimining samaradorligi, balki tashkilotning umumiy boshqaruv samaradorligini ham aks ettiruvchi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda xalqaro miqyosda audit sifatini oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Ichki auditorlar instituti (Institute of Internal Auditors – IIA), Xalqaro audit va attestatsiya standartlari kengashi (International Auditing and Assurance Standards Board – IAASB), shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan audit faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan qator standartlar va metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu standartlar audit jarayonining shaffofligini

ta'minlash, auditorlarning professional faoliyatini tartibga solish hamda audit sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ular institutsional muhit, audit faoliyatining tashkiliy darajasi, auditorlarning professional kompetensiyasi, texnologik infratuzilma hamda normativ-huquqiy bazaning rivojlanganlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Mazkur omillarni tizimli ravishda o'rganish hamda ularni kompleks baholash metodikasini ishlab chiqish aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit tizimini takomillashtirish, korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni kompleks baholash metodikasini takomillashtirish mazkur tadqiqotning asosiy ilmiy yo'nalishini tashkil etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi

Ichki audit faoliyatining nazariy asoslari va audit sifatini baholash masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, R. Messier, S. Glover va D. Prawitt ichki auditni tashkilotda risklarni boshqarish, nazorat tizimini baholash hamda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgan mustaqil faoliyat sifatida ta'riflaydi¹. A. Gramling va D. Hermanson ichki audit sifatini korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri sifatida ko'rsatadi². Xalqaro amaliyotda audit sifatini baholash yondashuvlari ham alohida tadqiq etilgan. Jumladan, PCAOB, FRC va CPAB kabi tashkilotlar tomonidan audit sifati ko'rsatkichlari tizimi ishlab chiqilgan bo'lib, ularda auditorlarning malakasi, audit jarayonining sifati, auditorlik yuklamasi, resurslar yetarliligi va tashqi nazorat natijalari asosiy indikatorlar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu yondashuvlar audit sifatini baholashda ko'p omilli mezonlardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi.

Ichki audit faoliyatining xalqaro standartlar asosida tashkil etilishi masalalari ham bir qator ilmiy ishlarda o'z aksini topgan. Xususan, Ichki auditorlar instituti tomonidan ishlab chiqilgan International Professional Practices Framework hamda Global Internal Audit Standards ichki audit faoliyatining metodologik bazasini shakllantiradi. Ushbu standartlarda audit funksiyasining mustaqilligi, etik tamoyillar, professional kompetensiya, sifat nazorati va audit xizmatlarini bajarish tartibi belgilangan. Izlanishlarimiz natijasida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aynan aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati misolida kompleks baholash masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mavjud ilmiy ishlarda asosan ichki auditning umumiy nazariy jihatlarini, audit sifati indikatorlari yoki korporativ boshqaruv bilan bog'liq alohida omillar tahlil qilingan. Biroq aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi institutsional, tashkiliy, inson kapitali, texnologik va normativ-huquqiy omillarni yagona tizim asosida baholash metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Demak, muammoning o'rganilganlik darajasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ichki audit sifati bo'yicha nazariy va amaliy qarashlar yetarli darajada shakllangan bo'lsa-da, aksiyadorlik jamiyatlarida unga ta'sir etuvchi omillarni kompleks baholashning ilmiy-

¹ Messier R., Glover S., Prawitt D. *Auditing and Assurance Services: A Systematic Approach*. – 11th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2021.

² Gramling A., Hermanson D., Ramamoorti S., Shelley Y. *The Role of Internal Audit in Corporate Governance: A Synthesis of the Research Literature*. – Altamonte Springs, Florida: The Institute of Internal Auditors Research Foundation, 2004.

uslubiy yondashuvlarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Aynan shu jihat mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot usullari

Mazkur tadqiqotda ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ularni kompleks baholash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, ichki audit faoliyatining nazariy asoslarini o'rganishda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez usullari qo'llanildi. Ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish jarayonida tizimli va taqqoslama tahlil usullaridan foydalanildi. Xalqaro audit amaliyotini o'rganishda PCAOB, FRC va CPAB tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan audit sifati ko'rsatkichlari taqqoslab tahlil qilindi. Ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyatini aniqlashda ekspert baholash usuli qo'llanildi. Shuningdek, ichki audit sifatini baholash uchun ko'p omilli integral baholash usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro ichki audit tadqiqotlarida ichki audit sifatiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishi ta'kidlanadi:

- auditorlarning malakasi va tajribasi
- auditorlarning mustaqilligi
- audit metodologiyasi
- ichki nazorat tizimining rivojlanganligi
- korporativ boshqaruv darajasi

Xalqaro amaliyotda audit sifati ko'rsatkichlari qator tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan. Jumladan:

- PCAOB
- Financial Reporting Council (FRC)
- Canadian Public Accountability Board (CPAB)

Mazkur tashkilotlar audit sifatini baholash uchun quyidagi indikatorlardan foydalanishni tavsiya etadi:

- auditorlarning malaka darajasi
- audit jarayonining sifati
- audit yuklamasi
- auditorlarning ish tajribasi
- tashqi nazorat natijalari

1-jadval

PCAOB, FRC va CPAB audit sifati ko'rsatkichlarini taqqoslash³

Ko'rsatkichlar yo'nalishi	PCAOB (AQSh)	FRC (Buyuk Britaniya)	CPAB (Kanada)
Auditorlarning professional malakasi	Auditorlarning tajribasi, professional sertifikatlar (CPA va boshqalar), trening soatlari	Auditorlarning bilim darajasi va professional tayyorgarligi	Auditorlarning professional sertifikatlari va ish tajribasi
Auditorlarning ish yuklamasi	Audit guruhidagi xodimlar soni va ish	Auditorlar va hamkorlar o'rtasidagi	Auditorlarning ish yuklamasi va audit

³ PCAOB, FRC va CPAB audit sifati ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi

	yuklamasi ko'rsatkichlari	ish taqsimoti	guruhining samaradorligi
Audit jarayonining sifati	Audit topshirig'i uchun ajratilgan vaqt va audit resurslari	Audit rejalashtirish sifati va audit metodologiyasi	Audit tekshiruvlarining metodologik sifati
Audit jarayonida foydalaniladigan resurslar	Auditorlik firmalarining audit uchun ajratgan resurslari	Auditorlik tashkilotining ichki boshqaruv tizimi	Audit jarayonida foydalaniladigan inson resurslari
Audit nazorati tizimi	Audit sifatini nazorat qilish tizimi	Audit sifatini boshqarish va ichki nazorat tizimi	Ichki sifat nazorati va monitoring
Audit natijalari	Moliyaviy hisobotlarni qayta tuzatish holatlari (restatement), audit xulosalarining aniqligi	Audit hisobotining ishonchliligi va aniqligi	Audit natijalari va aniqlangan xatoliklar
Korporativ boshqaruv bilan bog'liqlik	Audit qo'mitasi bilan hamkorlik	Korporativ boshqaruv tizimida audit rolini baholash	Audit nazorati va boshqaruv tizimi o'rtasidagi integratsiya

Manba: PCAOB, FRC va CPAB audit sifati ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, PCAOB, FRC va CPAB tomonidan ishlab chiqilgan audit sifati ko'rsatkichlari o'zaro o'xshash bo'lib, ular asosan auditorlarning professional kompetensiyasi, audit jarayonining sifati hamda audit natijalarining ishonchliligini baholashga qaratilgan. Biroq ushbu tashkilotlar yondashuvida ayrim farqlar ham mavjud. Xususan, PCAOB audit sifati ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda audit jarayonida foydalaniladigan resurslar va auditorlarning ish yuklamasiga ko'proq e'tibor qaratadi. FRC esa audit sifati bilan bog'liq institutsional omillarni, xususan auditorlik tashkilotining ichki madaniyati va korporativ boshqaruv tizimi bilan aloqalarini muhim omil sifatida ko'rsatadi. CPAB esa audit jarayonlarining amaliy samaradorligi va sifat nazorati tizimiga alohida e'tibor qaratadi.

Mazkur yondashuvlar audit sifati ko'p omilli tushuncha ekanligini ko'rsatadi va audit sifatini baholashda kompleks ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarurligini asoslaydi.

Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida ichki audit faoliyati tashkilotning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, risklarni boshqarish hamda ichki nazorat tizimining samaradorligini baholashda muhim rol o'ynaydi. Ichki audit faoliyatining samaradorligi va sifati ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ushbu omillar ichki audit tizimining tashkil etilishi, auditorlarning professional darajasi, institutsional muhit hamda texnologik infratuzilma bilan uzviy bog'liqdir.

Tadqiqot doirasida aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillar quyidagi besh asosiy guruhga ajratildi: institutsional omillar, tashkiliy omillar, inson kapitali omillari, texnologik omillar hamda normativ-huquqiy omillar.

1. Institutsional omillar

Institutsional omillar ichki audit faoliyatining tashkilotdagi o'rni, uning mustaqilligi hamda korporativ boshqaruv tizimi bilan o'zaro aloqalarini belgilaydi. Ushbu omillar ichki audit faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi asosiy institutsional omillar quyidagilardan iborat:

- kuzatuv kengashining ichki audit faoliyatini nazorat qilishi
- audit qo'mitasining mavjudligi
- ichki audit xizmatining tashkilotdagi mustaqilligi
- korporativ boshqaruv tizimining rivojlanganligi
- audit faoliyatining strategik boshqaruv jarayonlari bilan integratsiyasi

Xalqaro amaliyotda ichki audit faoliyatining institutsional mustaqilligi audit sifatining asosiy sharti sifatida qaraladi. Xususan, IIA Three Lines Modelga ko'ra ichki audit tashkilotda risklarni boshqarish va nazorat qilish tizimining mustaqil baholovchisi sifatida faoliyat yuritishi lozim.

Institutsional muhit qanchalik rivojlangan bo'lsa, ichki audit faoliyati shunchalik samarali ishlaydi.

2. Tashkiliy omillar

Tashkiliy omillar ichki audit faoliyatining ichki tuzilmasi, audit jarayonlarini tashkil etish darajasi hamda audit jarayonlarining metodologik asoslari bilan bog'liq.

Tashkiliy omillarga quyidagilar kiradi:

- ichki audit xizmatining tashkiliy tuzilmasi
- audit jarayonlarini rejalashtirish tizimi
- audit metodologiyasi va audit standartlari
- audit jarayonida foydalaniladigan ichki nazorat tizimi
- audit jarayonlarining monitoring va baholash tizimi

Tashkiliy omillar ichki audit faoliyatining samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, chunki audit faoliyatining samarali tashkil etilishi audit jarayonlarining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xalqaro amaliyotda ichki audit faoliyatini tashkil etishda riskga asoslangan audit yondashuvi keng qo'llaniladi. Ushbu yondashuv audit resurslarini eng muhim risklarga yo'naltirish imkonini beradi.

3. Inson kapitali omillari

Ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi eng muhim omillardan biri auditorlarning professional malakasi hisoblanadi. Inson kapitali omillari auditorlarning bilim darajasi, professional tajribasi hamda kasbiy kompetensiyasi bilan bog'liq.

Mazkur omillar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- auditorlarning professional malakasi
- auditorlarning ish tajribasi
- auditorlarning malaka oshirish tizimi
- auditorlarning professional sertifikatlari (CIA, ACCA, CPA va boshqalar)
- auditorlarning analitik va tahliliy ko'nikmalari

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, auditorlarning professional malakasi yuqori bo'lgan tashkilotlarda audit tekshiruvlarining sifati yuqori bo'ladi.

Shu sababli auditorlarning doimiy malaka oshirish tizimini tashkil etish ichki audit sifatini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

4. Texnologik omillar

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ichki audit jarayonlarining samaradorligi ko'p jihatdan axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasiga bog'liq.

Texnologik omillarga quyidagilar kiradi:

- audit jarayonlarini avtomatlashtirish darajasi
- axborot tizimlari auditi
- katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili
- sun'iy intellekt asosidagi audit texnologiyalari
- audit jarayonlarida raqamli platformalardan foydalanish

Axborot texnologiyalaridan foydalanish audit jarayonlarining tezkorligi va aniqligini oshiradi.

Xalqaro amaliyotda ichki auditorlar uchun Global Technology Audit Guides (GTAG) texnologik audit jarayonlarini tashkil etish bo'yicha muhim metodik asos hisoblanadi.

5. Normativ-huquqiy omillar

Normativ-huquqiy omillar ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, me'yoriy hujjatlar hamda xalqaro standartlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur omillar quyidagilardan iborat:

- ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi milliy qonunchilik
- xalqaro audit standartlari (IPPF, Global Internal Audit Standards)
- korporativ boshqaruv kodekslari
- moliyaviy hisobot standartlari
- auditorlik faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar

Normativ-huquqiy muhit ichki audit faoliyatining institutsional asoslarini belgilaydi hamda audit jarayonlarining sifatini ta'minlashga xizmat qiladi.

2-jadval.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillar va ularning indikatorlari⁴

Omillar guruhi	Asosiy omillar	Baholash indikatorlari
Institutsional omillar	Korporativ boshqaruv tizimi, audit qo'mitasi faoliyati, ichki auditning mustaqilligi	Kuzatuv kengashi bilan aloqalar, audit qo'mitasi mavjudligi, ichki auditning boshqaruvdan mustaqilligi
Tashkiliy omillar	Ichki audit xizmatining tuzilmasi, audit jarayonlarini rejalashtirish, audit metodologiyasi	Audit rejalarning mavjudligi, audit jarayonlarining tizimliliigi, audit metodologiyasining xalqaro standartlarga mosligi
Inson kapitali omillari	Auditorlarning malakasi,	Auditorlarning sertifikatlari

⁴ Muallif ishlanmasi.

	professional tajribasi, malaka oshirish tizimi	(CIA, ACCA, CPA), ish tajribasi, trening soatlari
Texnologik omillar	Axborot texnologiyalaridan foydalanish, audit jarayonlarini avtomatlashtirish	Audit dasturiy ta'minoti, data analytics, IT-audit tizimi
Normativ-huquqiy omillar	Ichki auditni tartibga soluvchi qonunlar va xalqaro standartlar	IPPF standartlariga moslik, korporativ boshqaruv kodeksi, auditorlik faoliyati me'yoriy hujjatlari

***Manba:** aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillar besh asosiy guruh asosidagi muallif ishlanmasi.*

Xalqaro amaliyotda ichki audit faoliyatini tartibga soluvchi asosiy standartlar International Professional Practices Framework (IPPF) hamda Global Internal Audit Standards hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatini baholashda quyidagi usullardan foydalanish olib borilgan tadqiqodning natijaviylilik darajasini oshiradi.

1. Baholashning umumiy mantiqi

Ichki audit sifati bitta ko'rsatkich bilan emas, balki bir nechta o'zaro bog'liq omillar asosida baholanadi. Shu sababli baholash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

1. ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tanlash;
2. har bir omil bo'yicha baholash indikatorlarini belgilash;
3. har bir indikatorni ballik tizim asosida baholash;
4. omillar uchun vazn koeffitsiyentlarini belgilash;
5. yakuniy integral ko'rsatkichni hisoblash;
6. natijaga ko'ra ichki audit sifat darajasini aniqlash.

2. Baholash omillari

Ilmiy izlanishimiz natijasida ichki audit sifati quyidagi 5 ta asosiy guruh orqali baholanishi maqsadga muvofiq degan fikrga keldik:

1. Institutsional omillar
2. Tashkiliy omillar
3. Inson kapitali omillari
4. Texnologik omillar
5. Normativ-huquqiy omillar

Bu 5 ta blok ichki audit sifatining kompleks modelini tashkil etadi.

3. Har bir omil bo'yicha indikatorlar

3.1. Institutsional omillar

Bu blok ichki auditning mustaqilligi va korporativ boshqaruv bilan bog'liqligini baholaydi.

Indikatorlar:

- ichki audit xizmatining kuzatuv kengashiga hisobot berish darajasi;
- audit qo'mitasining mavjudligi;
- audit qo'mitasi yig'ilishlari soni;
- ichki auditning boshqaruvdan mustaqilligi;

- ichki audit funksiyasining strategik boshqaruvga integratsiyasi.

3.2. Tashkiliy omillar

Bu blok audit xizmatining ichki tashkil etilish sifati va metodologik asosini baholaydi.

Indikatorlar:

- yillik audit rejasining mavjudligi;
- riskga asoslangan rejalashtirishning qo'llanilishi;
- audit metodologiyasining mavjudligi;
- audit natijalarini monitoring qilish tizimi;
- audit topshiriqlarini hujjatlashtirish sifati.

3.3. Inson kapitali omillari

Bu blok auditorlarning malakasi va kasbiy salohiyatini baholaydi.

Indikatorlar:

- auditorlarning oliy ma'lumot darajasi;
- auditorlarning o'rtacha ish tajribasi;
- xalqaro va milliy sertifikatlariga ega auditorlar ulushi;
- bir auditor hisobiga to'g'ri keladigan yillik trening soatlari;
- auditorlarning analitik ko'nikmalari darajasi.

3.4. Texnologik omillar

Bu blok audit jarayonlarida IT va raqamli yechimlardan foydalanish darajasini baholaydi.

Indikatorlar:

- audit jarayonlarining avtomatlashtirilganlik darajasi;
- audit dasturiy ta'minotidan foydalanish;
- data analytics vositalaridan foydalanish;
- IT-auditning mavjudligi;
- raqamli monitoring va hisobot tizimlarining qo'llanilishi.

3.5. Normativ-huquqiy omillar

Bu blok ichki audit faoliyatining standartlar va normativ bazaga mosligini baholaydi.

Indikatorlar:

- IPPF talablariga moslik;
- Global Internal Audit Standardsga moslik;
- ichki audit nizomining mavjudligi;
- korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiqlik;
- ichki audit faoliyatining ichki reglamentlar bilan tartibga solinganlik darajasi.

4. Ballik baholash tizimi

Har bir indikatorni 5 ballik shkala asosida baholash tavsiya etiladi:

- ichki audit umuman mavjud bo'lmasa — 1 ball
- ichki audit mavjud, lekin sust ishlasa — 2–3 ball
- ichki audit muntazam ishlasa va ichki audit sifatiga real ta'sir ko'rsatsa 4–5 ball

5. Omillar vaznini belgilash

Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz va olingan so'rovnomalar natijasida omillar vazni quyidagi natijalarga erishdik. **(4-jadval)**

4-jadval.

Omillar vazni⁵

Omil guruhi	Belgisi	Vazn
Institutsional omillar	I	0.25
Tashkiliy omillar	T	0.20
Inson kapitali omillari	H	0.25
Texnologik omillar	X	0.15
Normativ-huquqiy omillar	N	0.15

Manba: Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz va olingan so'rovnomalar natijasidagi olingan natijalar

Bu yerda inson kapitali va institutsional omillarga ko'proq vazn berilyapti, chunki olib borilgan izlanishlar natijasida eng kuchli ta'sir qiluvchi omillar sifatida:

- auditorlarning malakasi,
- audit funksiyasining mustaqilligi,
- audit qo'mitasi samaradorligi

Vazn koeffitsiyentini hisoblash formulasi

Har bir omil uchun vazn quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$W_i = \frac{S_i}{\sum S_i}$$

Bu yerda:

- W_i — omilning vazn koeffitsiyenti
- S_i — omil uchun ekspertlar bergan ball
- $\sum S_i$ — barcha omillar ballari yig'indisi

Hisoblash

Ballar yig'indisi: $9+7+9+5+5=35$

Endi har bir omil vazni: (4-jadval)

Institutsional omillar $W_i = 9 / 35 = 0.257 \approx 0.25$

Tashkiliy omillar $W_i = 7 / 35 = 0.20$

Inson kapitali omillari $W_i = 9 / 35 = 0.257 \approx 0.25$

Texnologik omillar $W_i = 5 / 35 = 0.142 \approx 0.15$

Normativ-huquqiy omillar $W_i = 5 / 35 = 0.142 \approx 0.15$

Yakuniy vazn koeffitsiyentlari yig'indisi:

$$0.25+0.20+0.25+0.15+0.15=1$$

6. Har bir blok bo'yicha o'rtacha ballni hisoblash uchun quyidagi formulalardan foydalanish tavsiya etildi.

Har bir omil guruhi bo'yicha indikatorlar ballari yig'iladi va ularning o'rtachasi olinadi.

Masalan:

⁵ Muallif ishlanmasi.

$$I = \frac{I_1 + I_2 + I_3 + I_4 + I_5}{5}$$

$$T = \frac{T_1 + T_2 + T_3 + T_4 + T_5}{5}$$

$$H = \frac{H_1 + H_2 + H_3 + H_4 + H_5}{5}$$

$$X = \frac{X_1 + X_2 + X_3 + X_4 + X_5}{5}$$

$$N = \frac{N_1 + N_2 + N_3 + N_4 + N_5}{5}$$

7. Integral baholash formulasi

Ichki audit sifatining umumiy integral ko'rsatkichi quyidagicha aniqlanadi:

$$IAQ = 0.25I + 0.20T + 0.25H + 0.15X + 0.15N$$

Bu yerda:

- IAQ — ichki audit sifati integral ko'rsatkichi
- I — institutsional omillar bo'yicha o'rtacha ball
- T — tashkiliy omillar bo'yicha o'rtacha ball
- H — inson kapitali omillari bo'yicha o'rtacha ball
- X — texnologik omillar bo'yicha o'rtacha ball
- N — normativ-huquqiy omillar bo'yicha o'rtacha ball

8. Baholash natijasini talqin qilish

Yakuniy ko'rsatkich 1 dan 5 gacha oraliqda chiqadi. Uni quyidagicha talqin qilish mumkin: (5-jadval)

5-jadval.

Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatini baholash mezonlari.⁶

IAQ qiymati	Baholash darajasi
1.0 – 1.9	Juda past
2.0 – 2.9	Past
3.0 – 3.4	O'rtacha
3.5 – 4.4	Yaxshi
4.5 – 5.0	Juda yuqori

Manba: Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz natijasidagi olingan natijalar

9. Olib borilgan tadqiqodlarimiz natijasini hisoblashda "Samarqand Dori-Darmon" aksiyadorlik jamiyati misolida baholash natijalari quyidagicha bo'ldi:

- Institutsional omillar — 4.2
- Tashkiliy omillar — 3.8
- Inson kapitali omillari — 4.0
- Texnologik omillar — 3.5

⁶ Muallif ishlanmasi.

- Normativ-huquqiy omillar — 4.4

$$\text{Shunda: } \text{IAQ} = 0.25 \times 4.2 + 0.20 \times 3.8 + 0.25 \times 4.0 + 0.15 \times 3.5 + 0.15 \times 4.4$$

$$\text{IAQ} = 1.05 + 0.76 + 1.00 + 0.525 + 0.66 = 3.995$$

$$\text{IAQ} \approx 3.995 \approx 4.0$$

Demak, bu korxonada ichki audit sifati yaxshi darajada deb baholandi.

Agar ayrim indikatorlar bo'yicha aniq statistik ma'lumot bo'lmasa, ekspert baholash usuli qo'llanadi.

Bunda:

- 5–7 nafar mutaxassis jalb qilinadi;
- har bir indikator 1 dan 5 gacha baholanadi;
- ekspertlar bahosining o'rtachasi olinadi.

Ekspertlar tarkibiga quyidagilar kiritilishi mumkin:

- ichki auditorlar,
- audit qo'mitasi a'zolari,
- korporativ boshqaruv mutaxassislari,
- buxgalteriya va moliyaviy nazorat sohasidagi olimlar.

Ekspert baholash formulasi:

$$E_j = \frac{\sum_{i=1}^m e_{ij}}{m}$$

Bu yerda:

- E_j — j-indikator bo'yicha o'rtacha ekspert bahosi
- e_{ij} — i-ekspertning j-indikatorga bergan bali
- m — ekspertlar soni

“Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatini baholash uchun ko'p omilli integral yondashuv taklif etildi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ichki audit sifati institutsional, tashkiliy, inson kapitali, texnologik va normativ-huquqiy omillar asosida baholanadi. Har bir omil tegishli indikatorlar tizimi orqali 5 ballik *шкала* asosida baholanadi va vazn koeffitsiyentlari yordamida umumlashtiriladi. Natijada ichki audit sifatining integral ko'rsatkichi aniqlanadi. Mazkur usul ichki audit faoliyatining kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, audit tizimini takomillashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash hamda korporativ boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

6-jadval

Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatini baholash indikatorlari⁷

Omillar guruhi	Indikatorlar	Baholash mezonlari
Institutsional omillar	Audit qo'mitasining mavjudligi	mavjudligi va faoliyati
	Ichki audit xizmatining mustaqilligi	boshqaruvdan mustaqillik darajasi
	Kuzatuv kengashi bilan aloqalar	audit hisobotlarining taqdim etilishi

⁷: PCAOB, FRC va CPAB audit sifati ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlari asosida ishlangan

	Korporativ boshqaruv darajasi	boshqaruv tizimining rivojlanganligi
	Audit funksiyasining strategik rolini belgilash	strategik qarorlarda ishtiroki
Tashkiliy omillar	Yillik audit rejasining mavjudligi	audit rejalashtirish darajasi
	Riskga asoslangan audit rejalashtirish	risklarni baholash tizimi
	Audit metodologiyasining mavjudligi	audit standartlari va reglamentlar
	Audit jarayonining hujjatlashtirilishi	audit hujjatlarining to'liqligi
	Audit natijalarini monitoring qilish	tavsiyalar bajarilishini nazorat qilish
Inson kapitali omillari	Auditorlarning professional malakasi	oliy ma'lumot darajasi
	Auditorlarning ish tajribasi	o'rtacha ish staji
	Xalqaro sertifikatlar	CIA, ACCA, CPA ulushi
	Trening va malaka oshirish	yillik trening soatlari
	Analitik ko'nikmalar	tahlil va risk baholash qobiliyati
Texnologik omillar	Audit dasturiy ta'minoti	IT vositalardan foydalanish
	Data analytics vositalari	ma'lumotlar tahlili tizimi
	IT-audit mavjudligi	axborot tizimlari auditi
	Audit jarayonlarini avtomatlashtirish	elektron audit tizimi
	Raqamli monitoring tizimi	real vaqt nazorati
Normativ-huquqiy omillar	Ichki audit nizomi	ichki hujjatlar mavjudligi
	IPPF standartlariga moslik	xalqaro standartlar qo'llanilishi
	Korporativ boshqaruv kodeksi	kodeks talablariga muvofiqlik
	Moliyaviy hisobot standartlari	IFRS yoki milliy standartlar
	Audit reglamentlari	ichki nazorat hujjatlari

Manba: PCAOB, FRC va CPAB audit sifati ko'rsatkichlari bo'yicha hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Mazkur jadvalda aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatini baholashda foydalaniladigan asosiy indikatorlar tizimlashtirilgan. Jadvalda omillar institutsional, tashkiliy va inson kapitali omillari guruhlariga ajratilgan bo'lib, har bir guruh ichki audit tizimining muhim jihatlarini aks ettiradi. Institutsional omillar ichki auditning tashkilotdagi o'rnini, mustaqilligi va korporativ boshqaruv bilan o'zaro aloqalarini tavsiflaydi. Tashkiliy omillar esa audit jarayonlarini rejalashtirish, metodologik asoslarning mavjudligi, audit natijalarini hujjatlashtirish hamda monitoring qilish kabi jarayonlarni qamrab oladi. Inson kapitali omillari auditorlarning professional malakasi, ish tajribasi hamda xalqaro sertifikatlar va treninglar orqali kasbiy rivojlanish darajasini

ifodalaydi. Ushbu indikatorlar tizimi ichki audit faoliyatini kompleks baholash hamda uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlash uchun ekspert baholash usulidan foydalanildi. Ushbu usulga ko'ra ichki audit sohasida tajribaga ega mutaxassislar (ichki auditorlar, korporativ boshqaruv mutaxassislari, ilmiy tadqiqotchilar) tomonidan omillarning muhimlik darajasi baholandi. (8-jadval)

Baholash jarayonida har bir omil 1 dan 10 gacha ball asosida baholandi.

8-jadval

Ekspert so'rovnomasi (anketa)⁸

Ichki audit sifatini baholash uchun ekspertlardan foydalanish mumkin.

No	Indikator	1	2	3	4	5
1	Audit qo'mitasining faoliyati					✓
2	Ichki audit mustaqilligi				✓	
3	Auditorlarning malakasi					✓
4	Audit metodologiyasi			✓		
5	Audit texnologiyalaridan foydalanish			✓		

Manba: Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz natijasidagi olingan natijalar

8-jadvalda ichki audit sifatini baholash uchun ekspertlar tomonidan muhim deb baholangan indikatorlar keltirilgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, audit qo'mitasining faoliyati va auditorlarning malakasi ekspertlar tomonidan eng yuqori – 5 ball bilan baholangan bo'lib, bu omillar ichki audit tizimining samaradorligini ta'minlashda asosiy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Shuningdek, ichki auditning mustaqilligi 4 ball bilan baholangan bo'lib, bu ichki audit xizmatining xolisligi va ob'ektivligini ta'minlashda muhim omil sifatida e'tirof etilgan. Audit metodologiyasi hamda audit texnologiyalaridan foydalanish esa 3 ball darajasida baholangan bo'lib, ular ichki audit jarayonini tashkil etish va zamonaviy audit usullarini qo'llash bilan bog'liq omillar sifatida ko'riladi.

Umuman olganda, ekspert baholash natijalari ichki audit sifatini oshirishda institutsional omillar (audit qo'mitasi faoliyati va auditorlar malakasi) hal qiluvchi rol o'ynashini, shuningdek, mustaqillik, metodologiya va texnologiyalar esa ushbu tizimning samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi muhim tarkibiy elementlar ekanligini ko'rsatadi.

9-jadval

Ekspert baholash natijasi⁹

Omillar	Ekspert bahosi (ball)
Institutsional omillar	9

⁸ Muallif ishlanmasi.

⁹ Muallif ishlanmasi.

Tashkiliy omillar	7
Inson kapitali omillari	9
Texnologik omillar	5
Normativ-huquqiy omillar	5

Manba: Olib borilgan ilmiy izlanishlarimiz natijasidagi olingan natijalar

Ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillarning nisbiy ahamiyatini aniqlash uchun ekspert baholash usulidan foydalanildi. Ekspertlar tomonidan berilgan baholar asosida omillar uchun vazn koeffitsiyentlari hisoblab chiqildi. Natijada institutsional va inson kapitali omillari ichki audit sifatiga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar sifatida aniqlandi.

Xulosa va takliflar. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi omillar ko'p qirrali bo'lib, ular institutsional, tashkiliy, inson kapitali, texnologik hamda normativ-huquqiy omillar bilan bog'liq.

Mazkur omillar ichki audit tizimining samaradorligini ta'minlashda o'zaro bog'liq holda faoliyat yuritadi. Shu sababli ichki audit sifatini oshirish uchun ushbu omillarni kompleks tarzda rivojlantirish zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifatiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillar quyidagilardan iborat:

1. auditorlarning malakasi
2. audit funksiyasining mustaqilligi
3. audit qo'mitasining samaradorligi
4. audit metodologiyasi
5. raqamli texnologiyalar darajasi

Tadqiqot natijalariga ko'ra ichki audit sifatini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega:

- auditorlarning malakasini oshirish
- audit jarayonini raqamlashtirish
- audit qo'mitasining rolini kuchaytirish
- audit metodologiyasini xalqaro standartlarga moslashtirish

Aksiyadorlik jamiyatlarida ichki audit sifati korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijasida ichki audit sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanib, ularni baholashning ilmiy-uslubiy yondashuvi ishlab chiqildi.

Taklif etilgan model ichki audit sifatini kompleks baholash hamda audit tizimini takomillashtirish imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlarida audit tizimini rivojlantirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish hamda moliyaviy shaffoflikni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Messier W., Glover S., Prawitt D. Auditing and Assurance Services: A Systematic Approach. – 11th ed. – New York: McGraw-Hill Education, 2021.

2. Gramling A., Hermanson D., Ramamoorti S., Shelley Y. The Role of Internal Audit in Corporate Governance: A Synthesis of the Research Literature. – Altamonte Springs, Florida: The Institute of Internal Auditors Research Foundation, 2004.
3. The Institute of Internal Auditors. International Professional Practices Framework (IPPF). – Altamonte Springs, Florida: IIA, 2017.
4. The Institute of Internal Auditors. Global Internal Audit Standards. – Altamonte Springs, Florida: IIA, 2024.
5. Public Company Accounting Oversight Board (PCAOB). Audit Quality Indicators. – Washington, DC: PCAOB, 2015.
6. Financial Reporting Council. Audit Quality Review and Audit Quality Framework. – London: FRC, 2020.
7. Canadian Public Accountability Board. Audit Quality Indicators and Inspection Findings. – Toronto: CPAB, 2021.
8. COSO. Enterprise Risk Management: Integrating with Strategy and Performance. – New York: Committee of Sponsoring Organizations of the Treadway Commission, 2017.
9. Pickett K. The Essential Handbook of Internal Auditing. – London: John Wiley & Sons, 2010.
10. Sawyer L. Sawyer's Internal Auditing: Enhancing and Protecting Organizational Value. – Florida: The Institute of Internal Auditors Research Foundation, 2012.

Copyright: © 2026 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

